

## “Soat chiq-chiq uramo”

Har bir san'atkorning qiladigan ishi, xatti - harakatiga e'tibor qiladigan muxlis uni alqab qo'yishi, maqtab yurishi aniq. Hamma san'atkorlarga ham xos emas bu fikr. O'zining xarakterli jihati va iste'dodi bilan ajralib turadigan san'atkorlargagina nasib etadi bu fazilat. Bir necha yillar davomida o'z san'ati bilan tomoshabinlarning diqqatini tortib, e'tiborini qozongan, ko'plab muxlislariga ega bo'lgan Soat Sharipov bilan suhbatlashish ancha zavqli.

Bugun institutimizda “Ibratli, ijodkor insonlar” ruknida navbatdagi muloqot bo'lib o'tdi. Tadbirimizning bu galgi mehmoni taniqli aktyor va teleboshlovchi Soat Sharipov bo'ldilar. “Soat chiq-chiq urama” qo'shig'i davraga fayz kiritdi. Talabalar Soat akaning kino va televideniyedagi faoliyati bilan bog'liq holda o'zlarini qiziqtirgan savollarini berdilar. Nega aynan Soat deb ism berilganining sababini aytdilar. Ota - onamning aytishicha, men har kuni tongda soat 06:00 da chinqirib yig'lar ekanman. Qo'ni-qo'shnilar soat 6 bo'lganini mening yig'lab chinqirganimga qarab bilishgan. Ular uchun ramziy ma'noda “budilnik” bo'lgan ekanman, deb javob berdilar Soat aka. Tadbir talabalar tomonidan iliq kutib olindi. Tadbir yakunida Institutimizning va “Notiqlik san'ati akademiyasi” ta'lim muassasasining Faxriy yorlig'i va esdalik sovg'alari taqdim etildi.



**“Gumanitar fanlar” kafedrasining o'qituvchisi Bahriiddin Muqimov axboroti**

**Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**